


**QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**Qashqadaryo viloyatining  
sanoat ishlab chiqarishi  
2022- yil yanvar - noyabr oylari  
(dastlabki ma'lumot)**



**Tel.: (75)-221-32-36**



**[www.qashstat.uz](http://www.qashstat.uz)**

2022-yil yanvar-noyabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13 643,1 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 74,9 % ni tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 18 221,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 103,7 % ni tashkil etdi.




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 16,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 8,0 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 74,9 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 0,6 % ini tashkil etdi.


### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 452,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,0 % ini tashkil etdi.




2022- yil yanvar-noyabr oylarida



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13 643,1 mldr. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 74,9 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,3 % (20,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,4 % (2,8 %) va quyi texnologiyalisi – 47,6 % (41,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,4 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 170,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,1 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 20,6 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 27,7 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 146,4 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 15,8 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 110,8 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,4 % (2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 111,5 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

2022- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 47,6 ming tonna kalava ip (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 126,3 % ga o'sgan), 82,0 ming tonna paxta chigiti (87,8 %), 3,8 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (97,3 %) ishlab chiqarildi.

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Paxta chigiti, ming tonna.	90,4	82,0	-8,4
Paxta tolasi, ming tonna.	62,4	59,6	-2,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	133 156,4	111 080,7	-22075,7
Kalava ip tonna.	28 328,0	47 625,0	19297,0
Aroq, ming litr.	2 161,7	2 535,7	374,0
Uzum vinosi, ming letr.	618,6	415,6	- 203,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna.	3,9	3,8	- 0,1
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	4 380,0	3 567,0	- 813,0

### 2022-yil yanvar-noyabr oylarida Aroq ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yil yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2 535,7 ming litr aroq ishlab chiqarildi. Aroq ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,3 % ni tashkil etdi.



### Uzum vino ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 415,6 ming letr uzum vino ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,2 % ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-noyabr oylarida


### Kalava ip ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida jami 47,6 ming tonna kalava ip ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,3 % ga ko'paygan.



### Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 3 567,0 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,0 % ni tashkil etdi.



### Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 87,1 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % ni , fizik hajm indeksi esa, 20,6 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 18,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,1 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2022- yilning yanvar-noyabr oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 170,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 624,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,6 % ni tashkil etdi,

2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 110,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 885,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 129,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,7 % ni, fizik hajm indeksi 146,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 5 042,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 94,7 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % fizik hajm indeksi 92,9 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 435,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 20,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 111,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 22,1 % ni, fizik hajm indeksi 117,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 029,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 018,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,5 % ini) tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 77,0 % ni tashkil etdi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 107,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 98,1 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 125,3 % ni tashkil etdi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 130,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-noyabr oylari mos davriga nisbatan 110,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlari




2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 2 442,5 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,1 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda Yakkabog' tumanida (112,4 %), G'uzor tumanida (105,1 %), Kitob tumanida (103,6 %) va Qarshi shahrida (103,3 %) yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

#### Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 61,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 38,1 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiyligi hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 108,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 113,8 % ni tashkil etdi.





### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 25,5 %, shuningdek, Shahrisabz shahar va Yakkabog' tumani 8,1 % ni, Koson tumani 7,6 % ni, Kitob tumani 7,0 % ni tashkil etdi.




### Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 17,1 %, shuningdek, Kitob tumani 9,2 % ni, Koson tumani 8,9 % ni, Yakkabog' tumani 8,0 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 32,1 % ni, Shahrisabz shahrida 8,4 % ni va Koson tumani 7,1 % ni tashkil etdi.



### Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi G'uzor tumaniga to'g'ri kelib 17,5 % ni, shuningdek, Qarshi shahriga 16,8 % ni hamda Nishon tumaniga esa 14,4 % ni tashkil etdi.



Qarshi sh.	109,8	3 052,9
Shahrisabz sh.	105,2	384,2
G'uzor t.	98,4	3 182,0
Dehqonobod t.	128,8	1 254,5
Qamashi t.	110,7	573,4
Qarshi t.	121,3	1 636,1
Koson t.	103,7	885,2
Kitob t.	112,1	606,5
Mirishkor t.	140,8	540,2
Muborak t.	107,8	578,8
Nishon t.	80,2	2 619,2
kasbi t.	106,2	1 334,6
Ko'kdala t.	101,2	110,8
Chiroqchi t.	101,4	387,2
Shahrisabz t.	104,6	396,3
Yakkabog' t.	107,0	679,8

o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

### Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 5 503 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 990 tasi (mavjud korxonalar umumiyligi sonining 18,0 %) Qarshi shahriga, 580 tasi (10,5 %) Kitob tumaniga, 463 tasi (8,4 %) Yakkabog' tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

807 dona

2020- yil yanvar-noyabr

1 291 dona

2021- yil yanvar-noyabr

1 478 dona

2022- yil yanvar-noyabr



Jami faoliyat yuritayotgan

3 995 dona

2020- yil yanvar-noyabr

4 679 dona

2021- yil yanvar-noyabr

5 503 dona

2022- yil yanvar-noyabr

